

кўрсатди. Чунки, олинган қоракўл териларининг 86,1 фоизи катта ва ўрта сатҳли қоракўл тери бўлиб, уларнинг вазн жиҳатидан ёлғиз типда туғилган қоракўл кўзилардан олинган қоракўл терилар вазнига нисбатан анча енгил эканлиги қоракўл териларнинг товарлик хусусиятини янада яхши эканлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Юсупов С. Ю. и др. Селекция и племенные ресурсы в каракульском овцеводстве. Ташкент «Мухаррир» нашриёти, 2010, стр. 202.
2. Кошевой М. А. Селекция и условия разведения каракульских овец. Ташкент, изд. «Фан», 1975, 246 стр.
3. Дьячков И. Н. Племенное дело в каракульском овцеводстве, изд. «Фан», 1976, 153 стр.
4. Исмаилова, М. М., & Кличев, З. С. (2022). СПОСОБЫПОВЫШЕНИЯ МНОГОПЛОДИЯ КАРАКУЛЬСКИХ ОВЕЦ. In *ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ-ОСНОВА БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ* (pp. 227-230).
5. Mirzakulovna, I. M., &Safarovich, K. Z. (2022). Dependence of Birth Type on Live Weight and Body Dimensions in Black Korakola Lambs. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 77-80.
6. Safarovich, K. Z. (2021). The Interaction of Wool Coat Length and Productivity in Karakul Sheeps. *International Journal on Orange Technologies*, 3(11), 67-69.

UO‘K: 636.32/38/082/11

TURLI RANGBARANGLIKDAGI SUR QORAKO‘L QO‘ZILARIDA RANGBARANGLIKNING IFODALANISHI

M.X.Turanov-q.x.f.d. (PhD), ilmiy xodim

A.Gaziev-q.x.f.d, katta ilmiy xodim

B.S.Mamatov-q.x.f.d. (PhD), bo‘lim mudiri

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Maqolada turli rangdagi sur rangli qorako‘l qo‘zilarida rangning ifodalanishi va uning namoyon bo‘lishi haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rasm, ranglar, olmos, kumush, tanlov.*

Annotation. *The article provides information on the severity of color and its meaning in Karakul lambs of sur colors of various colors.*

Key words: *painting, colors, diamond, silver, selection.*

Kirish. Ma‘lumki, qorako‘l qo‘ylarida rangbaranglik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan seleksion ko‘rsatkich hisoblanadi. Qorako‘l qo‘ylari turli rang(qora, sur, ko‘k va boshqalar) hamda rangbaragliklarga(olmos, kumushsimon, po‘lati, havorang va boshqalar) bo‘linadi. Ushbu rang va rangbarangliklar bilan tadqiqot ishlarini olib borish ma‘lum bir qonuniyat va uslublar asosida amalga oshiriladi. Ma‘lum rangbaranglikning namoyon bo‘lish darajasini kuchaytirish suruv bilan olib boriladigan aniq seleksion tadbirlar va uning darajasiga bog‘liq. Bunday muhim tadbirlardan biri qo‘ylarni rangbaranglik bo‘yicha gomogen juftlash hisoblanadi.

Buxoro surida mavjud bo‘lgan kumushsimon, tillasimon, olmos va binafsha rangbarangliklari o‘ziga xos irsiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Ularni turli variantlarda juftlash ko‘zlangan rangbarangliklarning olinish darajalarini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan sur qo‘ylarni seleksiyalash samaradorligini oshirish uchun ularning genotipini baholash va uning natijalaridan amaliyotda foydalanish muhim hisoblanadi [1, 2].

Rangbarangliklar bo'yicha geterogen juftlash olib borishda olmos rangbarangligidagi qo'chqorlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni ushbu rangbaranglikdagi naslli qo'chqorlardan foydalanib olingan avlodlarda rangning ifodalanishi, rangning o'tish keskinligi hamda ushbu rangbaranglikdagi avlodlarning chiqimi yuqori bo'ladi [3].

Tadqiqot maqsadi. Turli rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'zilarida rangbaranglikning ifodalanishini o'rganish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda turli rangbaranglikdagi qo'ylar, ulardan olingan avlodlarni baholashda "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" dan foydalanildi [4].

Tadqiqot natijalari. Buxoro suri zot tarkibiga kiruvchi qoraqalpoq va surxondaryo suridan rangbarangliklarining ifodalanish darajasining o'ziga xosligi bilan xarakterlanuvchi qimmatli genotip hisoblanadi. Uning turli rangbarangliklari turli xil ifodalanishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Ushbu holatni shunday izohlash mumkinki, rangbaranglikning ifodalanishi sur qorako'l terilarida rangbaranglikni hosil qiluvchi jun tolalarining pastki pigmentlangan va uchki turli darajada depigmentlangan (rangsizlangan) qismlarining ajralib turish keskinligi va rangsizlangan qismining uzunligi va teri sathida aniq ko'rinish hosil qilishiga bog'liq. Ushbu ko'rinishda pigmentsizlangan jun tolalarining ranggiga qarab olmos (uchki qism olmos rangda), kumushsimon (uchki qism kumush rangda), tillasimon (uchki qism tilla rangda) binafsha (uchki qism binafsha rangda) rangbarangliklariga bo'linadi. Ular orasida eng ko'p sonlilari va qimmatlilari (90-95%) kumushsimon, olmos tillasimon rangbarangliklari hisoblanadi.

Tadqiqotlarda aniqlanganki, rangbaranglikning ifodalanishi bir qator faktorlarga bog'liq. Bular qatoriga rangning jun- tolasini pigmentlangan ostki qismidan uchki pigmentsizlangan qismiga o'tish keskinligi, pigmentlanish darajasi, jun – tola uzunligi bo'yicha pigmentsizlanish darajasi, surlikning tekisligi va teri sathi bo'yicha tarqalishi, gullarning shakli va o'lchami, jun tolalarining sifati va tarkibi, turli darajada rangsizlangan qismlarining nisbati, tarkibi va uzunligi va boshqa qator omillarni, shu bilan bir qatorda qayd etilgan ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatuvchi seleksiya ishlarini yuritish darajasi va tashqi muhit sharoitini kiritish mumkin. Aytish mumkinki, agar rangbaranglik ifodalanishining yuqoridagi omillarga bog'liqligini inobatga olinsa, ushbu muhim ko'rsatkichga seleksiya ishlarini yo'naltirish orqali yuqorida qayd etilgan belgilarni ham optimallashtirish, yaxshilashga zamin yaratiladi. Tadqiqotlar davomida muhim fomillardan biri sifatida e'tirof etiladigan rangbaranglik bo'yicha qo'ylarni gomogen va geterogen juftlashning rangbaranglikning ifodalanishiga ta'sir etishini o'rganish yo'nalishida izlanishlar olib borildi. Ma'lumotlar 1, 2-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Avlodlarda rangbaranglikning ifodalanishi

Juftlash varianti		n	Avlodlarning rang ifodalanishi, % ($X \pm S_x$)		
♂	♀		A'lo	Yaxshi	Yetarli emas
Olmos	Olmos	68	61,8±5,89 ^{x)}	29,4±5,52	8,8±3,44
	Kumushsimon	49	49,0±7,14	38,8±6,96	12,2±4,68
	Tillasimon	38	34,2±7,69	47,3±8,09	18,5±6,30
Kumushsimon	Olmos	52	55,8±6,88 ^x	32,7±6,50	11,5±4,42
	Kumushsimon	86	52,3±5,38	34,9±5,13	12,5±3,57
	Tillasimon	41	36,6±7,52	48,8±7,80	14,5±5,50

X-P<0,05; X)-P<0,001

Tadqiqot natijalari (1-jadval) rangbaranglik ifodalanishining kuchayishi seleksiya jarayonida olmos rangbaranglikdagi qo'chqor va qo'ylardan foydalanish sharoitida yuz berishini ko'rsatadi. Bu holatda olmos rangbarangligidagi qo'ylarni gomogen juftlash avlodlarda rangbaranglikning a'lo ifodalanish darajasini 61,8±5,89 foizga, yaxshi ifodalanish darajasini 29,4±5,52 foizga yetkazish imkonini berib, yetarsiz ifodalanish darajasini sezilarli

(8,8 foizgacha) tushirishi aniqlandi. Bu ko'rsatkichning mutanosib ravishda kattaligi "olmos x kumushsimon" juftlashda $49,0 \pm 7,14$; $38,8 \pm 6,96$ va $12,2 \pm 4,68$ foizni, "olmos x tillasimon" juftlashda esa $34,2 \pm 7,69$ ($P < 0,001$) $47,3 \pm 8,09$ va $18,5 \pm 6,30$ foiz darajalarida qayd etildi, ya'ni a'lo ifodalanishning pasayib, yaxshi va yetarsiz ifodalanishning ko'payishi aniqlandi. Shunga o'xshash holat kumushsimon qo'chqorlardan foydalanishda ham kuzatilib, rangbaranglikning a'lo ifodalanishi birinchi variant juftlashda $55,8 \pm 6,88$ foiz avlodlarda, ikkinchi variant juftlashda $52,3 \pm 5,38$ foiz avlodlarda, uchinchi variant juftlashda esa $36,6 \pm 7,52$ foiz ($P < 0,001$) avlodlarda qayd etildiki, aniqlangan natijalarni seleksiya ishlarida inobatga olish samarali hisoblanadi.

Xulosa. Olmos rangbarangligidagi qo'ylarni gomogen juftlashda avlodlarda rangbaranglikning a'lo ifodalanish darajasini $61,8 \pm 5,89$ foizga, o'rta ifodalanish darajasini $29,4 \pm 5,52$ foizga yetkazish, yetarsiz ifodalanish darajasini sezilarli (8,8 foizgacha) tushirish imkoni yaratiladi. Maqsadli juftlash ishlarini olib borishning sur qo'ylarda muhim seleksion ko'rsatkich hisoblangan a'lo rang tekisligi salohiyatining avlodlarda sezilarli yuqori darajada namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaziyeu A. Qorako'l qo'ylarini samarali seleksiyalashning ekologik va genetik asoslari. Q.x.f.d. (DSc) doktorligiga yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand 2021 y. 225 bet.
2. Boltayev A., Raximov A., Mamatov B. Buxoro sur qorako'l qo'ylarining qovurg'agulli va yasigulli yuqori mahsuldor seleksion suruvlarini yaratish usullari. "Cho'l–yaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. (2009 y. 20-21 avgust. Samarqand sh.)- Samarqand, 2009, 44-48 bet.
3. Ибрагимов А.А., Болтаев А.Ж. Гетерогенное спаривание овец по окрасом. Селское хозяйство Узбекистана. 1993 г. 18-19 с.
4. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. 2021 y.

UO'K: 636.32/38/082/11

OLMOS VA KUMUSHSIMON RANGBARANGLIKDAGI SUR QORAKO'L QO'ZILARIDA GULLARNING JOYLASHISH RASMI VA MUSTAHKAMLIGI

M.X.Turanov-q.x.f.d, ilmiy xodim

A.Boltaev-ilmiy xodim

M.Yarmanov- tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi sur qorako'l qo'zilarida gullarning joylashish rasmi va mustahkamligi, gullarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: gul, olmos, kumushsimon, qovurg'asimon, yassi, genotip

Annotation. The article presents data on the study of the density and pattern of curls in Karakul lambs of diamond and silver sur colors.

Key words. Curl, diamond silver, ribbed, flat, genotype.

Kirish. Ma'lumki, qorako'l qo'ylarida guv va rang ko'rsatkichlari muhim hisoblanadi hamda bu ko'rsatkichlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Teri yuzasida gul rasmlarining joylashishiga qarab uning gul tipi hamda teri sifatiga baho berish mumkin.

Qo'ylarni maqsadli seleksiyalashda avlodlar terisi sathida mustahkam gullar salmog'ini juftlash variantlariga bog'liq holda sezilarli ortishi hamda yetarsiz mustahkam va bo'sh gullar salmog'i kamayadi. Keltirilgan uch xil juftlash varianlarida o'ta mustahkam va mustahkam